

RASM SEMIOTIKASINING ARTIONIMLARDA AKS ETISHI

Azamatova Odinaxon Obidovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlarining semiotikasi haqida so'z yuritiladi. Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo'lib, u muayyan matnlardagi shakl va mazmunning dialektik birligi hisoblanadi. Bu belgi o'zi aloqador bo'lgan narsa haqida kuzatuvchiga xabar beradi. O'sha belgilarning eng muhim va murakkab tizimi bo'gan xabarni izohlovchisi sifatidagi leksikasini, nomini, matnini esa tilshunoslik o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *onomastika, artionim, semiotika, denotatsiya, semiologiya, ikonik belgi, ramziy belgi, indeksli belgilar.*

Tasviriy san'at asarining yaratilish jarayoni va bu jarayonning mahsuli bo'lgan rasm tomoshabinnig yani insonning ratsional mavjudot sifatidagi evolyutsiyasiga kirib bora oladi. O'sha tomoshabin idrokining rivojlanishini tasvirdagi ifodaning funksiyalari turli bosqichlarda belgilab beradi. U tasviriy san'at asarining hoxlagan janlari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bu esa bizga rasmni nafaqat dunyoni ahglashda insoiyatni atrof-muhitga ta'sirini madaniy kodlash, balki, onomastik ko'lamda artionimlarning semiotikasini ham o'rganish imkonini beradi. Ma'lumki, semiotika yun. semeiotikos — belgilar haqidagi ta'limot, semiologiya axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan sohasidir. Shuningdek, u yoki bu obyektning semiotik nuqtai nazaridan o'rganiladigan tizimi ham hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda semiotika kishilarningning aloqada bo'lishiga imkon beradi. Bu esa o'sha aloqa vosita tizimlarini tekshiradi, izohlaydi va tasniflaydi. Semiotika dastlab, XVII asrda Jon Lokk tomonidan belgilar bilan shug'ullanadigan umumiy fan sifatida ta'riflanadi. XX asr boshlarida esa F.de Sossyur semiologiya yoki umumiy belgilar haqidagi fanning mavjudligini ta'kidlab, tilshunoslik bu fanning bir qismi ekanligini ochib berdi. Shunday qilib, barcha insoniy muloqotning aks etishi semiotikaning mavzusiga aylandi¹. Demak, semiotika, ishoralardan yoki belgilardan iborat tarkibiy tizimlarni o'rganishga yordam beruvchi ilmiy atamadir.

Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo'lib, u muayyan matnlardagi shakl va mazmunning dialektik birligi hisoblanadi. Bu belgi o'zi aloqador bo'lgan narsa haqida kuzatuvchiga xabar beradi. O'sha belgilarning eng muhim va murakkab tizimi bo'gan xabarni izohlovchisi sifatidagi leksikasini, nomini, matnini esa tilshunoslik o'rganadi. Ularni o'rganishda sintaktik, semantik va pragmatik jihatlari nazarda tutiladi. Sintaktik jihati nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo'llanadigan til

¹ Guiraud P. Anlambilim. Gelişim Yayınları, İstanbul, 1975

birliklari o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlar, semantik jihati belgilarning ular ifodalaydigan obyektlar bilan munosabati, pragmatikasida esa belgilar, ular ifodalaydigan obyektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi.

Tasviriy san'at asarlarining semiotik ko'rinishi uning estetik zavq manbai sifatida idrok etilishini tasvirga yuklaydi. Tasvirni nomlagan artionim esa, xalq milliy madaniyatining belgilar tizimi sifatidagi rasm semiotikasining belgisi yoki birligi sifatida taqdim etiladi. Terminologik jihatdan, rasmni murakkab belgi sifatida tavsiflash mumkin, chunki uning semiotik makonini bir necha turdagi belgilar tashkil qiladi. Charlz Pirs semiotikaning² ikonik, ramziy va indeksli belgilarini ajratadi. Tasviriy san'at asarlarining semiotikasi ham ana shu belgilarda ifodalanadi. Jumladan, rasmni ikoniklik belgisi shakl va denotatsiyaning o'xshashligida. Chunki rassom ifodalagan tasvir aniq yoki xayoliy ob'ekt (denotatsiya)ga o'xshash tasvir(shakl)larni ko'rsatadi. Ramziy belgisi esa, musavvir bilan tasvir o'rtasidagi bog'lanish asosida rasmning semiotik makonidagi belgi – chizgilari semantik mazmunni hosil qiladi. Piktogrammasi yuqoridagi belgilardan farqlanib, uning mavjudligi muhim emas, chunki ularning shakli va denotatsiyasi rasmning uzviylik munosabatlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Indekslik belgisi tasviriy san'at asarining eng muhim jihati hisoblanib, u orqali musavvir bilan tomoshabin o'rtasidagi munosabat amalga oshadi. Xuddi shu belgi artionimlarda aks etadi. Masalan: “Shahrisabzlik kulol” (Akmal Nur), “Tandir boshida”, “Dadasining yo'liga qarab” (Umidjon Alimov) kabi asarlarning sarlavhalari voqelikni nomlash bilan birga tomoshabinga muallifning g'oyasini, tasavvurini, rasmning asl mohiyati haqidagi fikrlarini bayon etadi va bu haqda tomoshabin bilan o'rtoqlashadi. Belgilarning chegaraviy ishlashini nazarda tutuvchi ma'lum bir san'at asari kontekstidagi belgi munosabatlarining nozik tomonlarini chetga surib, uning turlari va transformatsiyasi, shuningdek, talqin qilish shartlariga qarab³, tadqiqotimizda aynan o'sha indeksli tomoniga e'tibor qaratamiz. Bu o'rinda rasmning sarlavhasi bilan birga, rassomning ismi sharifi, uning hayot yo'llari, shuningdek, asar bilan bog'liq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qo'shimcha matnning bir qismi yoki hozirgi zamonaviy ko'rgazmalarda taqdim etilayotgan rasmning kuver kodlarida batafsil ma'lumotlarni uchratish mumkin. Lekin biz aynan o'rganayotgan birlikning terminologik va funktsional holatini artionimlar sifatida tahlilga olganimizda, uning tasviriy, tarixiy nutq birligi sifatida ekanini ta'dkidlashimiz mumkin. Yani artionimlar uning belgi funktsiyasi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bu funktsiya o'zaro ta'sir ishtirokchilari o'rtasida axborot, aloqa yoki ma'lumot almashishdagi rolini ko'rsatadi. Rasm - idrok etilayotgan tasvir va uning sarlavhasi matn sifatida ma'lumot uzatuvchi murakkab belgidir. Tasvirni "to'g'ri" o'qish uchun bu ikkala (tasvir va matn) tomon ham asosiy ahamiyat kasb etolmaydi, chunki ma'lumotning dekodlanishi ko'plab sub'ektiv va ob'ektiv omillarga bog'liq. Masalan, rassomning rejasi, g'oyalari,

²Кашин В.В., Мусин Д.З. Чарльз Пирс о репрезентирующей функции знака Оренбургский государственный университет Email: socf@mail.osu.ru

³ Борисенко Р.А. Цифровые технологии в современном знаково-символическом пространстве // Вестник науки и образования. 2023. № 7(136)-1, 2023. С. 109-111

bilimi, tasavvuri va eng asosiysi qay darajada tasvirlay olganini artionimik matnga joylashida. Ishni taqdim etishda tomoshabinning artionimda ifodalangan voqeliklar haqidagi ma'lumotlardan xabardorligi, "Simurg vodiysidagi Majnun (Niyozali Xolmatov), "Sulton Husayn Amir Temurning taxtga chiqishi" (Kamoliddin Behzod) kabi tarixiy masalalardan xabardorligi, rasmni idrok etish shartlari (mustaqil yoki hamrohlikda), hattoki tomoshabinning asarni idrok etish paytidagi hissiy, jismoniy holatini ham kuzatish e'tiborga olinadi. Chunki, rasmning ikkila axborot vositasi ham, yani rasm ham, artionimik matn ham tomoshabinda qiziqish uyg'otishi mumkin. Ushbu o'zaro ta'sir muammosi amerikalik taniqli faylasuf va san'atshunos A. Danto (1924 - 2013) o'zining to'qqizta bir xil qizil rang bilan mashhur fikrlash tajribasida monoxromlar qo'shilgan matn (shu jumladan sarlavha) san'at asarini idrok etishga nafaqat hissiy ta'sir darajasida, balki ob'ektni sub'ektiv tasniflash darajasida ham ta'sir qilishini ishonchli tarzda ko'rsatib beradi⁴.

Tasviriy san'at asarining nomi shunchaki so'z yoki jumla emas, balki kichik formatdagi matndir. Bunday konstruksiyalarni "kichik matnlar" deb atagan E.S. Kubryakova ularning mavjudligini o'z tadqiqotida isbotlab "maxsus moddiy kengayish, semantik, to'g'rirog'i, semiotik makonni tashkil etuvchi o'zaro bog'langan gaplar va superfrazalar birliklar ketma-ketligini yaratadi, shuning uchun matnning o'zida mavjud bo'lgan lingvistik shakllar majburiydir"⁵deya xulosaga keladi. Demak, artionimlarni rasmning semantika va semiotika bilan birlashtirilgan tugallangan nutq sifatida o'rganish mumkin, shuning uchun uni dekodlash-talqin qilish aslida uning tarkibiy qismlaridan tashqariga - rasmning oldiga borishni talab qiladi. Tasviriy san'at asar va artionimik matnning yonma-yon mavjudligi ushbu hodisalar sabab-oqibat munosabatlari bilan bog'liq. Chunki artionim o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u fenomenologik jihatdan o'z nomini olgan rasm bilan bog'liq holda ma'noga ega bo'ladi.

Artyonimik matnning semiotik tomonini o'rganish davomida eksperimental tadqiqot o'tkazdik. Eksperimentimizga 20 ta talabadan iborat ikki xil yo'nalish talabalariga bir qancha reproduksiyalar ko'rsatildi. Reproduksiyalar korpusiga turli xil janrdagi rasmlar tanlab olindi. Masalan, Kamoliddin Behzodning "Sulton Husayn Mirzo sayrda" kartinasi, Dilorom Mamedovaning "Qishloqdagi hayot" sarlavhasi ostidagi asari, G'ofur Abdurahmonovning "Amir Temur" portret janridagi ishi, O'rol Tansiqboyevning "Kuz tongi" nomli tabiat tasviri aks rasmlari va bir qancha shu kabi reproduksiyalar talabalarga ko'rsatildi.

Tajriba davomida subyektlar ko'rgan narsalari haqidagi umumiy hissiy taassurotlari bilan birga ushbu rasmga mos artionim bilan nomlashlari kerak edi. Bu topshiriq tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga yuklatildi.

⁴ Danto A. After the End of Art: Contemporary Art and the Pale of History. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2021. 272 p.

⁵ Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. Т. М., 2001. С. 72-81.

Ushbu eksperimentning boshqacharoq topshiq bilan yani taniqli rassomlar haqidagi ma'lumotlar hamda taqdim etilgan rasmlarni nomlash vazifasi filologiya yo'nalishida o'qiyotgan 3-bosqich talabalariga murojaat qilindi.

Natijalar shuni ko'satdiki, 1-guruhda ishirok etgan talabalar asosan rasmning janriga e'tibor qaratgan holda nomlaganlar. 2-guruhda esa hissiy assotsiatsiyalar yoki hissiyotlarning yuanslari kabi jihatlar nomlashga asos qilib olingan. Hattoki rasmni nomlashda she'riy parchalar keltirganlari ham uchadi. Lekin aksariyat talabalarda rassomlar haqidagi ma'lumotlarning (nomlarini ham keltira olmagan) kamligi achinarli holat bo'ldi nazarimizda. Bu esa tasviriy san'at asarlari, ular haqidagi ma'lumotlarni o'rgatish, kelajak avlodimizga san'at asarlari namunalarini yetkazish davomida ushbu san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, eng asosiysi tasviriy san'at asarlari durdonalarini tushunish va his etishni o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Demak, tomoshabin va rasm o'rtasidagi munosabat jarayonida yuzaga keladigan semioz ko'p jihatdan artyonimik matnga asoslanadi. Rassomshunoslik madaniyati xalq madaniy hayotining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etishi ayni haqiqatdir. Bu o'rinda shubhasiz, artionimik matn mavjud rasm haqidagi ma'lumotlarni saqllovchi muhim rivojlantiruvchi vazifani bajaruvshi omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guiraud P. Anlambilim. Gelişim Yayınlan, İstanbul, 1975
2. Кашин В.В., Мусин Д.З. Чарльз Пирс о репрезентирующей функции знака Оренбургский государственный университет Email: socf@mail.osu.ru
3. Борисенко Р.А. Цифровые технологии в современном знаково-символическом пространстве // Вестник науки и образования. 2023. №5(136)-1, 2023. С. 109-111
4. Danto A. After the End of Art: Contemporary Art and the Pale of History. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2021. 272 p.
5. Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. Т.1. М., 2001. С. 72-81.
6. Azamatova, O Ona tili darslarini o'qitishda artionimlarni qo'llash "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024y
7. Azamatova, O. O. O'zbek tilida artionimlarning qo'llanilishi. Mug'allim ham uzluksiz bilimlendiru. *Илимий-методикалық журнал* 2024y 3-сан
8. Azamatova, O. (2024). The principles of naming artonyms based on nature and history. В international bulletin of applied science and technology (Т. 4, Выпуск 3, сс. 64–68). Zenodo.
9. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М. : Гослитиздат, 1959. 656 с.
10. Кошляк А.Б. Категории художественного текста // Стилистика текста: языковые средства экспрессивного текста. Уфа: Изд-во БГУ, 1989. С. 52.